




JIZZAX VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

# JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL  
YANVAR-IYUN

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan



## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Jizzax viloyati <sup>1)</sup>	4 564,1	100,0	108,7
Jizzax sh.	1 856,7	40,7	104,6
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	77,2	1,7	115,4
Baxmal	317,9	7,0	109,9
G'allaorol	382,2	8,4	114,2
Sharof Rashidov	615,0	13,5	108,5
Do'stlik	152,8	3,3	112,4
Zomin	370,0	8,1	112,8
Zarbdor	168,1	3,7	111,7
Zafarobod	82,4	1,8	112,7
Mirzacho'l	128,4	2,8	111,6
Paxtakor	169,4	3,7	122,0
Forish	211,1	4,6	113,5
Yangiobod	32,9	0,7	88,1


<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.



# Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)



**2023- yil yanvar-iyun** oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 077,0** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,3** % ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar


(2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	3 077,0	106,3
Arnasoy	1 602,0	113,8
Baxmal	1 897,7	107,5
G'allaorol	2 079,4	111,7
Sharof Rashidov	2 581,6	105,7
Do'stlik	2 211,4	110,5
Zomin	2 099,9	110,3
Zarbdor	1 805,7	109,1
Zafarobod	1 557,9	110,4
Mirzacho'l	2 347,6	109,6
Paxtakor	2 125,4	119,2
Forish	2 170,0	111,7
Yangiobod	1 115,9	87,0
Jizzax shahri	9 615,3	101,8



## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2019-2023- yillar yanvar-iyun)

2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonining (17 060 birligi) **9 413** birligi xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi **75,1 %** ni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi **2 628,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **57,6 %** ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **18,8 %** ini tashkil etdi.

### Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Kichik tadbirkorlikning hajmi, mlrd. so'mda	Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>2 628,4</b>	<b>57,6</b>
Arnasoy	52,0	67,4
Baxmal	203,1	63,9
G'allaorol	288,5	75,5
Sharof Rashidov	509,8	82,9
Do'stlik	103,8	67,9
Zomin	251,8	68,1
Zarbdor	116,4	69,2
Zafarobod	57,5	69,7
Mirzacho'l	74,9	58,3
Paxtakor	109,3	64,5
Forish	156,7	74,2
Yangiobod	26,8	81,5
Jizzax shahri	677,8	36,5



## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyun)


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>4 564,1</b>	<b>100,0</b>	<b>108,7</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	234,3	5,1	122,7
Moliyaviy xizmatlar	1 309,6	28,7	122,8
Transport xizmatlari	647,2	14,2	102,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	622,6	13,6	100,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	159,5	3,5	104,2
Savdo xizmatlari	1 304,4	28,6	104,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	82,9	1,8	101,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	202,0	4,4	105,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	85,5	1,9	98,4
Ijara xizmatlari	71,3	1,6	77,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	112,3	2,5	101,8
Shaxsiy xizmatlar	130,0	2,8	101,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	58,1	1,3	106,9
Boshqa xizmatlar	167,0	3,6	101,3



# Moliyaviy xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)




2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan 2023- yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **921,9** mlrd. soʻmga oshib, **1 309,6** mlrd. soʻmga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **28,7** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **122,8** % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan toʻlovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash boʻyicha xizmatlari uchun toʻlanadigan haq hisobiga koʻra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **92,9** % ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **65,1** foizni yoki **852,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan Baxmal tumanida yuqori oʻsish surʻati **225,1** % ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-iyun)


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (% da)	Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	Sug'urta bo'yicha xizmatlar	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar
Jizzax viloyati	92,9	5,9	1,2
Arnasoy	99,3		0,7
Baxmal	99,1		0,9
G'allaorol	99,1		0,9
Sharof Rashidov	98,8		1,2
Do'stlik	98,0		2,0
Zomin	99,1		0,9
Zarbdor	99,0		1,0
Zafarobod	99,4		0,6
Mirzacho'l	98,8		1,2
Paxtakor	98,6		1,4
Forish	98,9		1,1
Yangiobod	88,8		11,2
Jizzax shahri	99,1	9,0	0,9

## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)





2023- yilning yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi **647,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **102,7** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **14,2** % ni tashkil etdi.




**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **422** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **3,4** % ini tashkil etdi. Ulardan **420** birlik (**99,5** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **96,2** %.



**2023-yil yanvar-iyun oylarida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **622,6** mlrd. so'mga yetdi.

**2022-yil yanvar-iyun oylariga** nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **100,4 %** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,6 %** ni tashkil etdi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.



Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yok tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **55,6 %**.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ushbu ko'rsatkich **57,0 %** ni tashkil etgan.

## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

Yo'lovchi

Yuk



44,4


55,6

# Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

**2019- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-iyun** oylarida savdo xizmatlari hajmi **643,2** mlrd. so'mga oshib, **1 304,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**2022- yilning mos davriga** nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **104,3 %** ga yetdi.



**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqning umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **45,3 %** yoki **5 687** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8 foizi (5 677 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



# Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-iyun)



9,2 %

Ulgurji savdo xizmatlari,  
avtomobillar va mototsikllar  
savdosidan tashqari  
xizmatlar

78,8 %

Avtomobillar va mototsikllar  
savdosidan tashqari  
chakana savdo bo'yicha  
xizmatlar

12,0 %


Avtomobillar va mototsikllar  
ulgurji va chakana savdosi,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda  
xizmatlar



**2023- yilning yanvar-iyun** oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **78,8 %** ni tashkil etdi.



Hududlar	<i>Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar</i>	<i>Ulgurji savdo xizmatlari</i>	<i>Chakana savdo xizmatlari</i>
Jizzax viloyati	12,0	9,2	78,8
Arnasoy	9,6	1,8	88,6
Baxmal	35,2	2,9	61,9
G'allaorol	3,8	1,5	94,7
Sharof Rashidov	10,1	8,3	81,6
Do'stlik	4,5	21,1	74,4
Zomin	5,8	7,9	86,3
Zarbdor	2,1	13,2	84,7
Zafarobod	5,3	3,7	91,0
Mirzacho'l	2,5	5,8	91,7
Paxtakor	6,3	1,2	92,5
Forish	3,6	1,7	94,8
Yangiobod	3,0	3,4	93,6
Jizzax shahri	19,1	20,4	60,5




**2023- yilning yanvar-iyun** oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **234,3** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **122,7 %** ni tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **221** birlikka yetdi, shundan **204** birligi (umumiy sonining **92,3 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. (2023- yil yanvar-iyun, % da) 2023- y.





# Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
<b>Jizzax viloyati<sup>1)</sup></b>	<b>234,3</b>	<b>100,0</b>	<b>122,7</b>
Arnasoy	6,5	2,8	126,9
Baxmal	22,0	9,4	126,1
Gʻallaorol	24,1	10,3	126,4
Sharof Rashidov	31,4	13,4	124,8
Doʻstlik	9,2	3,9	124,8
Zomin	23,1	9,8	126,5
Zarbdor	12,4	5,3	127,1
Zafarobod	7,0	3,0	127,1
Mirzachoʻl	7,4	3,2	126,1
Paxtakor	11,3	4,8	125,4
Forish	39,2	16,7	116,4
Yangiobod	4,0	1,7	126,2
Jizzax sh.	36,7	15,7	116,5


<sup>1)</sup> hududlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**2019- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan Forish tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **39,2** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **8,9** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **16,7 %** ni tashkil etdi.

Yangiobod tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **4,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi.



**2023- yiling yanvar-iyun** oylarida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi **204,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,5 %** ni tashkil etgan.



**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.


### Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi

(2023- yil yanvar-iyun)

Hududlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati<sup>1)</sup></b>	<b>204,7</b>	<b>87,3</b>
Arnasoy	6,6	100,0
Baxmal	21,6	98,3
G'allaorol	24,0	99,5
Sharof Rashidov	31,2	99,3
Do'stlik	9,2	100,0
Zomin	22,9	99,4
Zarbdor	12,3	99,6
Zafarobod	7,0	100,0
Mirzacho'l	7,4	100,0
Paxtakor	10,6	93,2
Forish	13,3	33,8
Yangiobod	4,0	100,0
Jizzax sh.	34,6	94,3

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)



**2023- yil yanvar-iyun** oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **202,0** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **105,1** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi **84,0** % ni tashkil etdi.

“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.


**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yil yanvar-iyun oylaridagi** ulushi **73,3** % ni tashkil etdi. **Ma'lumot uchun:** **2022/2023-** o'quv yili boshidagi oliy ta'lim muassasalari soni **5** birlikni, shu jumladan xorijiy – **2** birlikni tashkil etdi.



# Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)



2023- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **85,5** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,9** % ini tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **328** birlikni tashkil etdi, shundan **243** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **91,2** mlrd. so'mga oshib, **159,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.




**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**2023- yilning 1- iyul** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 227** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 223** birligi (umumiy sonining **99,7** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**  
(2023- yil yanvar-iyun)



**Yashash bo'yicha xizmatlar**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

# Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)




**2023- yil yanvar-iyun** oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **82,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,8 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil etgan.

■ Hajmi, mlrd. so'mda    ■ O'sish sur'ati, % da

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



## Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-iyun)

**2023- yilning yanvar-iyun** oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **58,1** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,3** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-iyun** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,9** % ni tashkil etdi.




### Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-iyun, mlrd. so'mda)

Jizzax viloyati	58,1	Forish	0,2
Jizzax sh.	52,8	Zafarobod	0,1
Sh.Rashidov	4,1	Zomin	0,1
G'allaorol	0,3	Do'stlik	0,1
Baxmal	0,3	Arnasoy	0,1

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

# Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-iyun)



**2023- yilning yanvar-iyun** oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **112,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,8** %ni tashkil etgan.



## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-iyun)




**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

# Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-iyun)

**2019- yilning yanvar-iyuniga** nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **29,0** mlrd. so'mga oshib, **71,3** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,6** % ni tashkil etdi.



**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-iyun** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **73,2** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

